Повышение инвестиционной привлекательности – важное условие повышения конкурентоспособности предприятий.....	865
Каримова Дилафруз Садирдин кизи	
Yevropa ittifoqi davlatlari tijorat banklarining soliq to'lovlarini amalga oshirish tartibi	870
Komolov Odiljon Sayfidinovich	
Boshqaruvda innovatsiyalarni hisobga olgan holda agrokorxonalarni davlat tomonidan rag'batlantirishning zamonaviy yondashuvlari	878
Shaniyazova Zamira	
Практические аспекты применения статистических методов контроля качества на предприятиях.....	883
Усманов Илхом Ачилович, Усманов Фарзод Шохрухович	
Yashil iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy o'sishning yangi paradigmalarini shakllantirish: nazariy asoslar va amaliy talqinlar.....	891
Alimova Guzal Abduxakimovna	
Xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlarining nazariy va metodologik tahlili	895
Qo'ziboyev Boxodir Azzamboy o'g'li	
Kutubxonalarda raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes-modellarni ishlab chiqish.....	900
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	
To'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash operatsiyalari bo'yicha xarajatlarni xalqaro standartlar asosida hisob va hisobotda aks ettirish uslubi-yatini takomillashtirish	905
X.A.Raximov	
Kameral soliq tekshiruvda smart texnologiyalarini ma'lumotlarini soliq organlarining ma'lumotlar bazasida shakllanishi.....	910
Ergashev Uyg'un Jabborovich	
Obligatsiya moliya bozori instrumenti sifatida, milliy obligatsiyalar bozori	916
Avezov Ibrohim Ilxomovich, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Barqaror rivojlanish doirasida ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) ko'rsatkichlarining yashil texnologiyalar innovatsiyasiga ta'sirini baholash.....	921
Meliqo'zieva Dilrabo Muxitdin qizi	
Yashil iqtisodiyot – barqaror taraqqiyotga olib boruvchi yo'l.....	925
Xalilova Aziza Rustamovna	
Научно-теоретические основы экономической и эколого-экономической эффективности предприятий горнодобывающей промышленности.....	930
Раматов Зафарбек Жуманиязович	
Xitoyda eksport faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.....	938
D.E.Qarshiev	



XITOIDA EKSPORT FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

D.E.Qarshiev

ISFT instituti PhD dotsenti

daniyarkarshiev@gmail.com

Orcid kodi:0009-0003-0473-4693

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xitoyda eksport faoliyatini takomillashtirish jarayonlari tahlil etilgan. Xitoyda eksport faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari va tashqi savdo siyosatidagi muhim jihatlari o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekistonda eksport faoliyatini Xitoy tajribasi asosida rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: eksport, tashqi savdo, eksportni moliyalashtirish, eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash, xalqaro transport koridorlari, eksport subsidiyalari.

Abstract: The article analyzes the processes of improving export activities in China. The features of organizing export activities in China and important aspects of foreign trade policy are studied. Suggestions and recommendations for the development of export activities in Uzbekistan based on China's experience are also made.

Key words: export, foreign trade, export financing, export support, international transport corridors, export subsidies.

Аннотация: В статье анализируются процессы улучшения экспортной деятельности в Китае. Изучены особенности организации экспортной деятельности в Китае и важные аспекты внешнеторговой политики. Также были высказаны предложения и рекомендации по развитию экспортной деятельности в Узбекистане на основе опыта Китая.

Ключевые слова: экспорт, внешняя торговля, экспортное финансирование, поддержка экспорта, международные транспортные коридоры, экспортные субсидии.

KIRISH

Jahonda yuz berayotgan iqtisodiy globallashtirish va xalqaro integratsiya jarayonlari dunyo mamlakatlarining tashqi savdo aloqalarini yanada kengaytirishga, eksport faoliyatini takomillashtirishga olib kelmoqda. Bu jarayonda Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) jahon savdo tizimida yetakchi o'rinlardan birini egallab, eksport faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha o'zining samarali va muvaffaqiyatli tajribasiga ega bo'lgan davlatlardan biri sifatida ajralib turadi.

So'nggi o'n yilliklarda Xitoy iqtisodiyoti dunyodagi eng tez sur'atlar bilan o'sayotgan mamlakatlardan biriga aylandi. Buning zahirida, ayniqsa, mamlakat tashqi iqtisodiy siyosatining izchil va maqsadli tarzda amalga oshirilishi, xalqaro savdoni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan infratuzilma va tashkiliy mexanizmlarning shakllantirilishi muhim rol o'ynadi. Bugungi kunda Xitoy global eksportning eng yirik markazlaridan biri bo'lib, ko'plab davlatlar uchun asosiy savdo hamkori hisoblanadi.

Xitoyda eksport faoliyatining tashkiliy jihatlari davlat darajasida strategik ahamiyatga ega masalalar qatoriga kiradi. Mamlakat eksport sohasida o'z iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, raqobatbardoshlikni oshirish va xalqaro bozorlarda barqaror o'rin egallash maqsadida doimiy ravishda tarkibiy hamda institutsional islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Xususan, XXRda eksport faoliyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha maxsus siyosiy va huquqiy asoslar yaratilgan bo'lib, ular eksportchilarning xalqaro bozorlarga chiqishini qulaylashtiradi va ularning raqobatbardoshligini oshirishga ko'maklashadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Eksport faoliyatini takomillashtirish va unga tashkiliy-moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari orqali ta'sir ko'rsatish yo'nalishida MDH davlatlari hamda xorijiy mamlakatlarda keng ko'lami tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida bir qator yetuk xorijiy olimlarning ishlari tahlil qilindi. Xususan, Dohmen Holger tomonidan Xitoyda tashqi savdo siyosatini tashkil etishda qarz mablag'laridan voz kechish va mustaqil



moliyaviy siyosat yuritish zarurligi haqida ilgari surilgan qarashlar asosida olib borilgan ilmiy maqola o'rganildi¹.

Shuningdek, xorijiy tadqiqotchilar Li Tan, Larri Qiu va Ying Xuelarning Xitoydagi tashqi iqtisodiy strategiyalar bo'yicha tadqiqotlari tahlil qilindi². Eksport faoliyatini nazorat qilishga oid qonunchilik normalarining shakllanishi va ularning amaliy qo'llanilishi haqida Dominik Kostner va Markus Nonnlarning ishlariga murojaat qilindi³. Mercedes Kampi, Marko Duenas, Le Li va Xuabin Vu tomonidan yozilgan maqolada Xitoy eksportining rivojlanishida intensiv hamda ekstensiv usullardan foydalanilgani bo'yicha ilgari surilgan tahlillar tahlil qilindi⁴. Shuningdek, Chad Boun va Meredith Krouli tomonidan tayyorlangan, Xitoy eksport ko'rsatkichlariga Jahon savdo tashkiloti (JST) ta'siri haqidagi ilmiy ish ham tadqiqot doirasida ko'rib chiqildi⁵.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida mantiqiy va tarkibiy tahlil, guruhlashtirish, o'zaro bog'liqlikni aniqlash, shuningdek qiyosiy tahlil metodlaridan samarali foydalanildi. Tanlangan metodologik yondashuv tahlil natijalarining puxtaligini ta'minlashga xizmat qildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Xitoyda eksport faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida bir nechta maxsus tashkiliy tuzilmalar shakllantirilgan. Bu tuzilmalar tarkibiga davlat organlari, eksport agentliklari, savdo-sanoat palatalari, logistika markazlari va maxsus iqtisodiy zonalar kiradi. Har bir tuzilma o'z faoliyatida aniq funksiyalarni bajaradi hamda eksport mahsulotlarining xalqaro bozorga tez va samarali yetkazib berilishini ta'minlaydi.

Mamlakatda eksportni qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan moliyaviy, soliq va bojxona tizimlari izchil faoliyat yuritmoqda. Bunday muvofiqlashtirilgan tizim eksportchilarga amaliy qulayliklar yaratib, ularning tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda Xitoy hukumati tomonidan eksport faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan keng ko'lamli subsidiya va imtiyozlar tizimi joriy etilgan. Bular ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot tannarxini optimallashtirish va eksport mahsulotlarining xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga yordam bermoqda. Bundan tashqari, eksport jarayonlarini raqamlashtirish, mahsulot sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish va xavfsizlikni oshirish bo'yicha tashabbuslar keng qo'llab-quvvatlanmoqda.

Xitoyning eksport siyosatida logistika va transport infratuzilmasini rivojlantirish muhim ustuvorliklardan biri sifatida qaralmoqda. Mamlakatda yuqori tezlikdagi temiryo'l tarmoqlari, zamonaviy dengiz portlari va logistika markazlariga katta miqdorda investitsiyalar yo'naltirilmoqda. Bu esa Xitoy eksport mahsulotlarini jahon bozorlariga tez, xavfsiz va iqtisodiy jihatdan samarali tarzda yetkazib berish imkoniyatlarini kengaytirmoqda (1-rasm).



1-rasm. 2014-2024-yillarda Xitoy eksport ko'rsatkichlari (milliard AQSH dollarida)⁶

- 1 Dohmen, Holger. "China's foreign trade policy." *Intereconomics* 11.7 (1976): 197-201.
- 2 Li, Tan, Larri Qiu va Ying Xue. "Xitoyning tashqi savdo siyosatini tushunish: adabiyotlarni ko'rib chiqish." *Xitoyda iqtisodiyot chegaralari* 11.3 (2016): 410.
- 3 Köstner, Dominic, and Marcus Nonn. "The 2020 Chinese export control law: a new compliance nightmare on the foreign trade law horizon?" *China-EU Law Journal* 8.3 (2023): 81-95.
- 4 Campi, Mercedes, et al. "Diversification, economies of scope, and exports growth of Chinese firms." *arXiv preprint arXiv:1801.02681* (2018). 2018.
- 5 Bown, Chad P., and Meredith A. Crowley. "China's export growth and the China safeguard: threats to the world trading system?." *Canadian Journal of Economics/Revue canadienne d'économie* 43.4 (2010): 1353-1388.
- 6 <https://www.statista.com/statistics/263661/export-of-goods-from-china/>



2014-yilda Xitoyning tovar eksporti hajmi 2,34 milliard AQSH dollarini tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2015-yilda bir oz o'sib, 2,37 milliard dollarga yetgan. Biroq, 2016-yilda eksport hajmida pasayish kuzatiladi va bu ko'rsatkich 2,097 milliard dollarga tushadi. Buning asosiy sabablari qatorida jahon iqtisodidagi sekinlashuv, savdo nizolari, shuningdek, global bozorlardagi talabning pasayishi kabi omillarni ko'rishimiz mumkin.

Keyingi yillarda, ya'ni 2017-yildan boshlab eksport hajmi yana barqaror ravishda tiklanib boradi. Xususan, 2017-yilda eksport hajmi 2,26 milliard dollarga ko'tarilgan bo'lsa, 2018-yilda bu ko'rsatkich 2,48 milliard dollarga yetgan. 2019-yilda 2,499 milliard dollarni tashkil etgan eksport hajmi, 2020-yilda global pandemiya ta'siriga qaramay 2,58 milliard dollargacha o'sishni namoyon qilgan.

2021-yildan boshlab Xitoy eksporti keskin o'sib borganligi kuzatilmoqda. 2021-yilda 3,31 milliard AQSH dollarini tashkil etgan eksport hajmi, 2022-yilda yanada kattaroq o'sish bilan 3,54 milliard dollarga yetgan. Bu davrdagi yuqori o'sish sur'atlari pandemiyadan keyingi jahon iqtisodiyotining tiklanishi, Xitoydagi sanoat ishlab chiqarishining o'sishi hamda xalqaro bozorlarda talabning oshishi bilan bog'liq.

2023-yilda eksport hajmi biroz pasayib, 3,37 milliard dollarni tashkil qilgan bo'lsa-da, bu pasayish ko'p jihatdan global iqtisodiy vaziyatning murakkabligi va xalqaro savdodagi cheklovlar bilan bog'liq bo'lgan. 2024-yilda esa yana barqaror o'sish kuzatilib, eksport hajmi 3,57 milliard dollarga yetganligi ko'rinadi.

Bu davr ichidagi Xitoy eksportining o'sishi mamlakatning iqtisodiy siyosatida eksportga yo'naltirilgan tizimli o'zgarishlar, davlat tomonidan berilayotgan subsidiya va eksportchilarni qo'llab-quvvatlash choralari, infratuzilmani takomillashtirish va logistika tizimini rivojlantirish bilan bog'liqligi shubhasizdir.

Eksport ko'rsatkichlarining yuqori darajada bo'lishi Xitoyning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini, ishlab chiqarish salohiyatini va logistika tizimining samaraliligini ko'rsatib turibdi. Bu, shuningdek, Xitoyning global iqtisodiy tizimdagi muhim roli va jahon iqtisodiyotiga ta'sirining ortib borayotganidan dalolat beradi.

Xitoyning eksport faoliyati jahon iqtisodiyotida o'ziga xos, strategik ahamiyatga ega bo'lib, so'nggi o'n yil davomida barqaror va muntazam o'sish sur'atlarini ko'rsatmoqda. 2014–2024-yillar oralig'idagi davr mobaynida Xitoydan eksport qilinayotgan tovarlar hajmi sezilarli darajada o'sib borgan. Ayniqsa, 2022-yil rekord darajada yuqori ko'rsatkich qayd etilgan bo'lib, umumiy eksport qiymati 3,54 trillion AQSH dollaridan oshdi. Bu esa mamlakatning global iqtisodiy sahnadagi yetakchi ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi davlat sifatidagi rolini yanada mustahkamlaganidan dalolat beradi.

Xitoy eksportining umumiy o'sish dinamikasiga nazar tashlasak, o'sish sur'atlarining ba'zi davrlarda global iqtisodiy sharoitlar ta'sirida vaqtincha sekinlashganini kuzatish mumkin. Xususan, 2009-yilda global moliyaviy inqiroz va undan keyingi iqtisodiy tanazzul davrida eksport faoliyatida sezilarli pasayish kuzatilgan bo'lsa, shunga o'xshash holat 2016-yilda ham takrorlandi. Biroq bu pasayishlar Xitoy iqtisodiyoti uchun uzoq muddatli ta'sir ko'rsatmagan va eksport hajmi keyingi yillarda yana barqaror o'sish tendensiyasiga qaytdi.

Xitoy eksportining barqaror rivojlanishiga mamlakatning sanoatlashtirish siyosati, ishlab chiqarish va logistika infratuzilmasining rivojlanishi, shuningdek xalqaro savdo hamkorliklari ta'sir qilgan. Bugungi kunda Xitoy dunyodagi eng yirik ishlab chiqarish iqtisodiyotiga ega mamlakat sifatida ko'plab sanoat tarmoqlarida yetakchilik qilmoqda. Xususan, 2023-yilda ASEAN (Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi), Yevropa Ittifoqi va AQSH mamlakatlari Xitoyning eksportdagi yetakchi savdo sheriklariga aylangan. Ushbu mintaqalar bilan olib borilayotgan savdo hajmining yuqori darajada bo'lishi Xitoy eksportining geografik jihatdan diversifikatsiyalanganligini ko'rsatadi va bu esa xalqaro iqtisodiy beqarorliklar ta'sirini kamaytirishda samarali mexanizm vazifasini bajaradi.

Xitoy eksportining mahsulotlar tarkibiga nazar solsak, texnologik va ishlab chiqarish tarmoqlari eksportning eng asosiy qismini tashkil etadi. Xususan, mashinalar va transport uskunalari toifasida kompyuterlar, radioeshittirish texnologiyalari, mobil telefonlar kabi yuqori texnologik mahsulotlar eksport hajmining asosiy qismini tashkil qilib, 2023-yilda taxminan 1,65 trillion AQSH dollariga yetdi. Ushbu holat Xitoy iqtisodiyotining rivojlangan texnologik ishlab chiqarish bazasiga ega ekanligini va bu sektorlarning global raqobatbardoshligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Xitoy eksport faoliyatida birlamchi tovarlar eksportining ahamiyati ham sezilarlidir. Oziq-ovqat mahsulotlari va oziq-ovqat uchun ishlatiladigan tirik hayvonlar asosiy eksport mahsulotlari hisoblanadi. Ushbu turkumdagi mahsulotlarning global bozordagi talabining yuqori bo'lishi, ayniqsa dunyoning turli burchaklarida oziq-ovqat xavfsizligi masalalarining dolzarb bo'lib qolayotgani bilan izohlanadi. Shu jihatdan, Xitoy oziq-ovqat eksportining strategik yo'nalishini yanada rivojlantirish uchun qishloq xo'jaligida texnologik taraqqiyotni kuchaytirish, mahsulotlarni qayta ishlash jarayonlarini modernizatsiya qilishni kengaytirmoqda.

Xitoy eksport faoliyatining tashkiliy jihatdan rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri davlatning savdoni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan strategik dasturlari va tashabbuslari hisoblanadi. "Bir kamar – bir yo'l" tashabbusi orqali Yevroosiyo, Afrika va Lotin Amerikasi davlatlari bilan savdo aloqalarini yanada rivojlantirishga qaratilgan strategik hamkorliklarni kengaytirish eksport hajmining oshishiga katta hissa qo'shdi. Bundan tashqari, Xitoy hukumati tomonidan eksportchilarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, eksport sug'urtasi va boshqa turdagi eksportni rag'batlantirish choralari eksport faoliyatining rivojlanishida sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.



Eksport faoliyatining tashkiliy jihatlaridagi yana bir muhim masala – bu eksport mahsulotlarining xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashdir. Xitoy eksport qilinayotgan mahsulotlarning sifatini xalqaro bozorlarda raqobatbardosh darajada ushlab turish maqsadida doimiy ravishda ishlab chiqarish jarayonlarida sifat nazoratini kuchaytirish choralari ko'rib kelmogda. Ayniqsa, xalqaro standartlarga muvofiq sertifikatlash va muvofiqlikni baholash tizimlari Xitoy eksport faoliyatining muvaffaqiyatida muhim rol o'ynamoqda.

Yuqorida qayd etilgan iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarni inobatga olgan holda, Xitoy eksport faoliyatining kelajakdagi rivojlanish istiqbollari yuqori baholanmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, savdo logistikasi va elektron tijoratning rivojlanishi eksport hajmini yanada oshirish imkoniyatlarini yaratmoqda.

Xitoy eksport faoliyati so'nggi o'n yillik davomida barqaror rivojlanib, dunyo iqtisodiyotining muhim qismiga aylangan. Eksport hajmining yuqori ko'rsatkichlari Xitoyning xalqaro ishlab chiqarish zanjirlaridagi yetakchi rolini mustahkamlab, kelajakda ham xalqaro savdo tizimidagi yetakchi o'rnini saqlab qolishini ta'minlaydi. Mamlakatning eksport strategiyasi va tashkiliy mexanizmlarining doimiy takomillashuvi esa kelajakda yanada yuqori natijalarga erishishga zamin yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, Xitoyning 2001-yilda Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lishi bilan bog'liq ravishda, boshqa a'zo davlatlarga Xitoy eksportiga nisbatan diskriminatsion import cheklovlarini qo'llash imkonini beruvchi "Xitoy himoyasi" (China safeguard) mexanizmi joriy etilgan bo'lsa-da, Xitoy hukumati tomonidan yaratilgan mukammal chora-tadbirlar Xitoy eksport salohiyatining uzluksiz o'sishiga zamin yaratgan.

O'zbekistonda transport-logistika tizimini raqamlashtirish va avtomatlashtirish zarurati mavjud bo'lib, bu tizimni Xitoy tajribasidan foydalangan holda takomillashtirish mumkin. Xitoy eksportidagi muvaffaqiyat omillaridan biri – transport-logistika tizimining yuqori darajada raqamlashtirilgani va avtomatlashtirilganidir. Xitoyda eksport yuklarini kuzatib borish tizimlari (tracking systems), elektron bojxona tartibotlari (e-customs clearance), elektron hujjat aylanmasi keng qo'llanilmoqda. Bu esa eksportchilarning vaqt va xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishga imkon beradi. O'zbekistonda eksport faoliyatini rivojlantirish uchun aynan mana shu raqamli vositalardan kengroq foydalanish zarur. Mamlakatda elektron hujjat aylanmasini kengaytirish, eksport yuklarini kuzatib boruvchi yagona milliy tizim yaratish lozim. Bu, o'z navbatida, eksportchilarning byurokratik yuklamasini kamaytiradi hamda eksport jarayonlarini samarali va tezkor boshqarish imkonini beradi.

O'zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalar va erkin savdo hududlarini yanada rivojlantirish lozim. Xitoy eksport yutuqlarining yana bir muhim jihati – maxsus iqtisodiy zonalar va erkin savdo hududlari (Free Trade Zones) rivojlanishidir. Xitoydagi Shanxay, Shenjen kabi maxsus iqtisodiy zonalarda eksportga yo'naltirilgan korxonalar uchun soliq, bojxona va transport xizmatlari bo'yicha imtiyozlar yaratilgan bo'lib, bu hududlardagi eksport salohiyati juda yuqori. O'zbekistonda Navoiy, Andijon, Buxoro kabi mavjud erkin iqtisodiy zonalar samaraliroq foydalanish, ularda eksportchilar uchun jozibador imtiyoz va yengilliklarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Xitoy tajribasidan kelib chiqib aytish mumkinki, maxsus iqtisodiy zonalaridagi ishlab chiqarish zanjirlari global ta'minot zanjirlariga integratsiyalashgan bo'lib, bu esa milliy eksportni sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

O'zbekistonda eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish zarur. Xitoyda eksportchilar uchun moliyaviy yordam va eksport kreditlari taqdim etishda davlat tomonidan samarali mexanizmlar ishlab chiqilgan. Bu mexanizmlar arzon, qulay va keng qamrovli kreditlash tizimlarini o'z ichiga oladi. O'zbekistonda eksportni moliyalashtirish bo'yicha eksport oldi va eksport jarayonlaridagi kreditlash mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish, kredit olish jarayonlarini soddalashtirish va eksportchilar uchun kredit foiz stavkalarini pasaytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim. Shuningdek, Xitoyda qo'llanilayotgan eksport kreditlarini kafolatlash va eksport sug'urtasi mexanizmlarini O'zbekiston eksportni moliyalashtirish tizimiga joriy etish orqali eksportchilarning moliyaviy barqarorligini oshirish mumkin.

Eksport mahsulotlarining diversifikatsiyasi va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish lozim. Xitoy eksport tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatning eksport salohiyati faqat xomashyo yoki past qo'shilgan qiymatli mahsulotlar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Xitoy eksport tuzilmasida yuqori texnologik mahsulotlar, mashinasozlik, elektronika va kimyo sanoati mahsulotlari yetakchi o'rinda turadi. O'zbekiston eksport mahsulotlari tarkibini shu kabi yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar bilan boyitish talab etiladi. Bunda davlat tomonidan yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishlarni rivojlantirish, innovatsiyalarni joriy etish va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarning eksport hajmini oshirish bo'yicha moliyaviy va tashkiliy choralarni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-dekabrda "Eksportga ko'maklashish va uni rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4069-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4116006>



2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2017 yildagi "2018 — 2022-yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo'nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3422-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-3436209>
3. Dohmen, Holger. «China's foreign trade policy.» *Intereconomics* 11.7 (1976): 197-201.
4. Li, Tan, Larri Qiu va Ying Xuye. «Xitoyning tashqi savdo siyosatini tushunish: adabiyotlarni ko'rib chiqish.» *Xitoyda iqtisodiyot chegaralari* 11.3 (2016): 410.
5. Köstner, Dominic, and Marcus Nonn. «The 2020 Chinese export control law: a new compliancy nightmare on the foreign trade law horizon?.» *China-EU Law Journal* 8.3 (2023): 81-95.
6. Campi, Mercyedes, et al. «Diversification, economies of scope, and exports growth of Chinese firms.» *arXiv preprint arXiv:1801.02681* (2018).2018
7. Bown, Chad P., and Meredith A. Crowley. «China's export growth and the China safeguard: threats to the world trading system?.» *Canadian Journal of Economics/Revue canadienne d'économique* 43.4 (2010): 1353-1388.
8. Transport logistika tizimining boshqaruv strukturasi takomillashtirish usullari" Ergasheva K.I. «Ekonomika i sotsium» №12(103)-1 2022.
9. <https://www.statista.com/statistics/263661/export-of-goods-from-china/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
